

*Shahrisabz davlat Pedagogika*

*instituti Pedagogika fakulteti*

*Pedagogika yo'nalishi 3-kurs*

*1-22-guruh talabasi*

***Temirova Safinabonu***

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada oila tarbiyasining mohiyati, uni tashkil etish shakli, metodi va vositalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, zamonaviy shaxsni tarbiyalash masalalari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Oila tarbiyasi, oila a'zolari, ota-ona, obyektiv va subyektiv omillar, zamonaviy, kommunikatsiya.*

"Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!" - deya ta'kidladilar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'indir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyati turlarini aks ettiradi. Ota - onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy -axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarini shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi. Yana bir keng ma'noda oila - nikohga yoki tug'ilganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iborat. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi muqaddas maskandir. Oila jamiyatning poydevorini tashkil etadi. Shu bois jamiyat va davlatning farovonligi,

gullab-yashnashi bevosita shu jamiyatdagi oilalarning moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkamligiga bog'liq. Bunda ota-ona zimmasida ma'naviy yetuk, jismoniy baquvvat yosh avlodni yetkazish barobarida, jamiyat ravnaqi uchun muayyan bir kasbning fidoyisi, iqtisodiy mustaqil, ishbilarmon, tadbirkorlik madaniyatiga ega shaxsni kamol toptirishdan iborat. Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash hamdir. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida oila tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llabquvvatlash va hokazolar. Oila tarbiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi. Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar obyektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar

sirasiga kiradi. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari — jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalarni yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi. Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim. Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota - ona , oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanar ekan oilada bolalar tarbiyasi muhimdir. Inson birinchi tarbiyani oiladan oladi. Shuning uchun ham ota-onalar farzandlari uchun munosib o'rnatilgan na'muna bo'la olishi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida hech qanday xatoliklarga yo'l quymasligi shart. Buning uchun ota onaning o'zi ham pedagogik bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Ota-onalar farzandlariga boshlang'ich ta'lim va tarbiyani berar ekanlar ular maktabgacha ta'lim muassasasi, umimiy o'rta ta'limga chiqishlari bilan nazoratni to'xtatib qo'ymasliklari muhimdir. Ular doimo farzandlarining tarbiyachi va

o'qituvchilari bilan aloqada bo'lib turishlari, farzandlari bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganliklaridan xabardor bo'lishlari kerak. Hozir axborot texnologiyalari rivojlangan jamiyatda yashayotgan ekanmiz ota-onalar farzandlarining ommaviy axborot vositalaridan qanday foydalanyotganliklarini doimo nazorat qilib turishlari lozimdir. Ota-onalar farzandlarining qiziqishlariga qarab ularni ma'lum kasb-hunarga yo'naltirishlari maqsadga muvofiqdir. Shundagina farzandlar o'zlari xohlagan soha mutaxassislari bo'lishlari mumkin. Bunday jarayonda farzandlarining qiziqishlarini bilish uchun oilada kommunikativ muloqat yaxshi shakillangan bo'lishi, farzand ota-onasiga o'z qiziqishlarini erkin atya olishlari kerak. Hozirgi kunda bola tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishlariga ota-onalar ma'suldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent: "O'zbekiston" 2017.
2. Milinorov, X. X., and D. N. Eshmuratova. "THE ROLE OF UZBEK TRADITIONS, CEREMONIES AND CUSTOMS IN PERSONALITY DEVELOPMENT." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
3. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEdagogical TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 210-214.
4. Isakhodjayev, Kh, et al. "Cooling air in contact with natural sources of cold." *E3S Web of Conferences*. Vol. 383. EDP Sciences, 2023.
5. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and АкрамРустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*. 2021.

6. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." *Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace*(2014): 193-200.
7. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." *Academicia Globe* 2.6 (2021): 391-394.
8. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 9 (2016): 71-73.
9. Сохибов, Акрам Рустамович. "MODERN METHODOLOGICAL BASES OF HIGHER EDUCATION MANAGEMENT IN THE ERA OF DIGITISATION: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.018> Soxibov Akram Rustamovich PhD Associate Professor of the Department of Pedagogy Karshi State University." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 10 (2022): 169-176.
10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 305-312.
11. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 296-304.
12. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
13. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." *SCIENCE AND WORLD* (2013): 20.
14. Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." *Science and innovation* 2.B5 (2023): 393-401.

15.Jalolova, Pokiza, and Yorkin Odilov. "CALCULATION AND MODELING ENERGY LEVELS IN THE ATOM ON THE BASIS OF INFORMATION TECHNOLOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).

16.Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." *Solid State Technology* 63.6 (2020): 152-158.